ÖZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QÖŞMA SÖZLARNING LINGVOKOGNITIV VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Feruza Boxadirovna Abduraximova*
Farğona davlat universiteti doktoranti
✉ feruz.abdurakhimova818@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada özbek va ingliz tillarida kompozitsiya usulida yasalgan qöşma sözlar lingvokognitiv va lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Kunçiqar – sunrise, kunbotar – sunset, kungaboqar – sunflower, yumronqoziq – gopher, tipratikan – hedge-hog, bilaguzuk – bracelet, qaynana – mother-in-law kabi juftliklar misolida nomlaşga asos qilib olingan motivlovçi belgi, konseptual metafora va metonimiya, millatning olamni kategoriyalaş tarzi oçib beriladi. Tabiat hodisalarini nomlaşda universallik, maişiy va ijti-moiy voqelikni nomlaşda esa milliy öziga xoslik ustun ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar

qöşma söz, kompozitsiya, motivlovçi belgi, konsept, konseptual metafora, metonimiya, nominatsiya, universallik, milliy-madaniy öziga xoslik.

DOI: 10.5281/zenodo.24472831

Kirish

Qöşma sözlar millatning olamni qanday körişi va nimani muhim deb bilişini eng yaqqol aks ettiruvçi leksik birliklardir. Ularning tarkibidagi har bir komponent nomlanayotgan predmetning qaysi belgisi ongda birinçi öringa çiqqanini körsatadi. Şu bois qöşma sözlarni faqat struktur jihatdan emas, balki lingvokognitiv nuqtayi nazardan ham örganiş dolzarbdir.

Qöşma sözlarning “öziga xos” milliyligi haqida gapirişdan avval “öziga xoslik” tuşunçasini aniqlaş lozim. Sözning öziga xosligi haqida til töğrisida töliq ma’lumotga ega bölgandagina, uni boşqa tillar bilan qiyoslab, farqli jihatlari haqida hukm çiqariş mumkin. Şu ma’noda har bir til lingvistik jihatdan boşqa tillarga nisbatan öziga xosdir [13;204].

Maqolaning maqsadi – özbek va ingliz tillarida kompozitsiya usulida yasalgan qöşma sözlarning nomlaş asosida yotgan kognitiv mexanizmlar (motivlovçi belgi tanlaş, metafora, metonimiya, kategoriyalaş) hamda ularda aks etgan milliy-madaniy qadriyatlarni qiyosiy aniqlaşdir. Tahlilda sözlar asosan diaxronik (etimologik), qisman sinxron jihatdan örganildi.

A.Hojiyev fikriga köra, qöşma söz deganda mustaqil ma’no ifodalaydigan, birdan ortiq komponentdan taşkil topgan söz nazarda tutiladi. Biroq qöşma söz komponentlari har doim ham morfemaga teng bölavermaydi: ular yasama sözga (leksemaga), hatto söz formasiga ham teng bölişi mumkin [17;30].

Rus tilşunosi L.S.Barxudarov esa, agar yasama sözdagi bir morfema taniş, ikkinçisi notaniş bölsa ham, uni morfema deb ataş xato bölmasligini ta’kidlaydi[8;380]. Demak, qöşma sözlar tarkibi morfemalardan taşkil topadi:

- *tinçliksevar* (tinç-lik + sev-ar)
- *betgaçopar* (bet-ga + çop-ar)
- *ustabuzarmon* (usta + buz-ar-mon)

B.Madaliyev qöşma sözni “ikki yoki undan ortiq söz (özak)larning birikuvidan tuzilib, yaxlit bir tuşunça – ma’noni ifodalovçi söz” deb ta’riflaydi [11;6-7]. Bu ta’rifga köra, qöşma sözda özakning birdan ortiq bölişi şart.

Lingvistik adabiyotlarda kompozitsiya usuli “özak qöşiş”, “söz qöşiş”, “asos qöşiş” terminlari bilan ta’riflanadi. “Özak qöşiş” termini hodisa mohiyatiga töla mos kelmaydi, çunki komponentlar doim özakka teng

emas. “Söz qöşiş” termini ham noaniq: sözlarning qöşiluvidan leksik emas, sintaktik birlik – söz birikmasi hosil böladi. Kompozitsiya natijasida yuzaga kelgan söz tarkibida şakl yasovçi morfema bölsa ham, u öz vazifasini bajarmaydi, çunki komponent söz emas, sözning qismidir. “Asos qöşiş” termini nisbatan maqbul körinadi: qöşma söz mustaqil leksik ma’noli birliklar qöşilişidan hosil böladi [18;33].

Kompozitsiya – sözlarni qöşiş orqali yaxlit ma’noga ega va talaffuzda ham bir birlik sifatida qöllanuvçi yangi söz yasaş usulidir [6;4]. Ingliz tilida bu usulda yunon tilidan özlaşgan elementlar ham faol iştirok etadi: yunonça *thermos* (“issiq”) va *metron* (“ölçov”) asosida *thermometer*, *akros* (“eng yuqori, çöqqi”) va *phobos* (“qörquv”) asosida *acrophobia* (“balandlikdan qörqiş”) sözlari yasalgan [6;4]. *Triskaidekaphobia* (“ön uç raqamidan qörqiş”) sözi esa Ğarb madaniyatidagi irim-sirim bilan boğliq bölib, özbek madaniyatida bunday tuşunçaning alohida nomi yöqligi nominatsiyaning madaniy şartlanganligini körsatadi.

Kognitiv tilşunoslikda söz yasalişi onomasiologik jarayon, ya’ni ongdagi tuşunçaga til şakli beriş sifatida qaraladi. E.S.Kubryakova yasama va qöşma sözni nomlanayotgan obyekt haqidagi bilimning “siqilgan” körinişi deb hisoblaydi: sözlovçi obyektning köplab belgilaridan bittasini yoki ikkitasini tanlab, nom asosiga qöyadi [9;25]. Bu tanlangan belgi *motivlovçi belgi* yoki sözning içki şakli deb ataladi va aynan unda millat tafakkuri namoyon böladi[14;27].

Nomlaşda konseptual metafora (bir sohani boşqa soha orqali tuşuniş) va metonimiya (qism orqali butunni, belgi orqali predmetni nomlaş) asosiy mexanizmlardir[4;18].

R.Bentses ingliz tilidagi ot + ot tipidagi qöşma sözlarning katta qismi aynan metafora va metonimiya asosida yuzaga kelişini körsatgan [2;148]. Özbek tilşunosligida Ş.Safarov ham til birliklarini inson bilimi va tajribasining tuzilmalari bilan boğliq holda örganiş zarurligini asoslagan[5;20].

Qiyosiy kuzatişlar quyidagi uç holatni körsatadi [13;204]:

1. Bir tilda sodda (bir özakli) söz bilan ifodalangan tuşunça boşqa tilda qöşma söz bilan ifodalanişi mumkin.

2. Bir tilda turğun ma’noli qöşma söz bölgan tuşunça boşqa tilda erkin söz birikmasi bilan berilişi mumkin.

3. Bir tuşunça har ikki tilda qöşma söz bilan ifodalansa ham, komponentlar turli belgilarni aks ettiradi – bu esa konseptualizatsiya farqini körsatadi.

Tabiat hodisalari nomlarida universallik: KUN – SUN konsepti

KUNÇIQAR (ot + fe’l + -ar). Söz “kun çiqadi” gapidagi -di tuslovçisi tuşirilib, -a zamon qöşimçasi -(a)r sifatdoş qöşimçasiga almaştirilişi va transformaning bir sözga birlaşişi natijasida hosil bölgan: *kun çiqadi* > *kunçiqar* [15;219].

SUNRISE (ot + fe’l) – tongda quyoş osmonda ilk bor körinadigan payt yoki şu paytdagi osmon körinişi; quyoşning çiqişi, kötarilişi[22].

KUNBOTAR (ot + fe’l + -ar) ham xuddi şu model asosida yasalgan: *kun botadi* > *kunbotar* [;217].

SUNSET (ot + fe’l) – keçqurun quyoş ufqdan pastga tuşib, tun boşlanadigan payt (sinonimi *sundown*); quyoş botişi [22].

Har ikki tilda bu sözlar ikki komponentli, kompozitsion usulda yasalgan qöşma sözlardir. Farq şundaki, özbek tilida ikkinçi komponent sifatdoş şaklini oladi. Ş.Rahmatullayev etimologik luğatida *kun* sözi “yerga issiqlik va nur taratib turuvçi planeta, quyoş” deb izohlanadi [15;219]. Demak, birinçi komponentlar (*kun – sun*) semantik jihatdan bir xil, ikkinçi komponentlar ham mos keladi: *çiqar – rise* (“kötarilmoq”), *botar – set* (“botmoq, ötirmoq”).

Lingvokognitiv nuqtayi nazardan bu sözlar VERTIKAL HARAKAT obraz-sxemasiga asoslanadi: quyoş “pastdan yuqoriga” çiqadi va “yuqoridan pastga” botadi. Özbek tilida *kun* sözi bir vaqtning özida “quyoş” va “sutka” ma’nolarini bildirgani sababli, quyoşning çiqişi va botişi kunning boşlanişi va tugaşi bilan metonimik boğlangan (VAQT – QUYOŞ HARAKATI). Tabiat hodisalari yer yuzida bir xil keçgani uçun ularni nomlaşda xalqlar tafakkurida yakdillik kuzatiladi: şakllar turliça bölsa-da, semantik muştaraklik saqlanadi. Bu xususiyatni nominatsiyadagi **universallik** deb baholaş mumkin. Grammatik jihatdan *kunçiqar, kunbotar* kontekstda köproq sifat (*kunçiqar tomon*) vazifasida, *sunrise, sunset* esa ot yoki sifat (*sunset years*) vazifasida keladi.

SUN asosidagi söz yasaliş tizimi

Ingliz tilida *sun* sözi ham affiksatsiya, ham kompozitsiyada asos bölib, butun bir leksik tizim hosil qiladi:

Inglizça	**Yasaliş usuli**	**Özbekça muqobili**	**Muqobil turi**
Sunny	affiksatsiya (sun + -ny)	serquyoş, quyoşli	yasama söz
sunburn	kompozitsiya (ot + ot)	oftobda kuyiş, badanning oftobda qorayişi	söz birikmasi
sundew	kompozitsiya (ot + ot)	rosyanka (haşarotxör ösimlik)	özlaşma
sunflower	kompozitsiya (ot + ot)	kungaboqar	qöşma söz
sunshade	kompozitsiya (ot + ot)	soyabon	yasama söz
sunstroke	kompozitsiya (ot + ot)	oftob urişi	söz birikmasi
sunlight, sunshine	kompozitsiya (ot + ot)	quyoş nuri, yoğdusi	söz birikmasi

Jadvaldan körinadiki, ingliz tilidagi bir sözga özbek tilida ba’zan yasama söz, ba’zan söz birikmasi töğri keladi – bu nazariy qismda qayd etilgan birinçi va ikkinçi holatlarni tasdiqlaydi.

SUNNY – serquyoş. Har ikki tilda söz otdan sifat yasaydi va semantik jihatdan teng. Farqi – özbek tilida prefiks (*ser-*) yoki suffiks (*-li*) orqali yasalişi.

SUNBURN – oftobda qorayiş. Ingliz tilidagi qöşma sözga özbek tilida söz birikmasi mos keladi. Buning madaniy sababi sifatida özbeklarda oftobda toblaniş an’anasining keng tarqalmagani hamda dengizga çiqişi yöq quruqlik iqlimini körsatiş mumkin: tuşunça kommunikativ jihatdan dolzarb bölmagani uçun alohida nom olmagan [22].

SUNFLOWER – KUNGABOQAR. Bu tuşunça har ikki tilda qöşma söz bilan ifodalangan, ammo turliça konseptuallaşgan. Ingliz tilida ikkala komponent ot (*sun* + *flower*): ösimlik töpgulining quyoşga *öxşaşligi* asos qilingan, ya’ni bu – öxşatişga asoslangan metafora. Özbek tilida esa *kunga boq-* fe’l birikmasi -(a)r sifatdoş qöşimçasini olib, bir sözga birlaşgan[15;217]: bu yerda ösimlikning quyoş tomon buriliş *xatti-harakati* (geliotropizm) asos qilingan. Şunday qilib, ingliz tili predmetning taşqi körinişini, özbek tili esa uning harakatini tanlagan – bu qiyoslaşning uçinçi holatiga yorqin misol.

SUNSHADE – soyabon. Sözma-söz “quyoşdan tösuvçi” degan ma’noni beradi. Özbek tilida bunga teng qöşma söz yöq, *soyabon* yasama sözi yomğirdan ham, quyoşdan ham saqlovçi buyum uçun işlatiladi. Ingliz tilida esa yomğir uçun *umbrella*, quyoş uçun *sunshade* (şuningdek *parasol*) farqlanadi. Bu ingliz tilida predmetlar vazifasiga köra mayda kategoriyalarga ajratilişini, özbek tilida esa umumiy funksiya (“soya beriş”) asosida bir kategoriyaga birlaştirilişini körsatadi [22].

Hayvon va buyum nomlarida motivlovçi belgining tanlanişi

YUMRONQOZIQ – GOPHER

Yumronqoziq – yer ostida in qurib yaşaydigan, ekinlarga zarar keltiradigan kemiruvçi sutemizuvçi hayvon. “Özbek tilining etimologik luğati”ga köra, bu qöşma ot *yumran* va *qaziq* sözlaridan taşkil topgan[15;185]. *Yumran* qadimgi turkiy tilda “berkin” ma’nosini bergan: *yöm-* fe’lining özlik ma’nosini ifodalovçi -(u)r qöşimçali şakliga -(a)n qöşilib yasalgan, keyinçalik ikkinçi böğindagi tor unli tuşib qolgan. *Qaziq* esa “kavla” ma’nosidagi *qaz-* fe’lidan -(u)q qöşimçasi bilan yasalgan sifat: *qaz-uq* > *qazuq* > *qaziq* (“qazuvçi”); natijada u “qoqib kiritiladigan yoğoç yoki temir” ma’nosidagi *qoziq* oti bilan şakldoş bölib qolgan[15;185].

Ingliz tilida bu hayvon *gopher* deb ataladi – kalamuşga öxşaş, yerdagi inlarda yaşaydigan kiçik hayvon [20]. U Kanada va AQŞda uçraydi, taşqi körinişiga köra *ground squirrel* (“yer olmaxoni”) deb ham yuritiladi. Etimologik taxminlarga köra, söz fransuzça *gaufre* (“vafli, asal mumi katakçasi”) sözidan kelib çiqqan: hayvon kavlagan teşiklar vafli katakçalariga qiyoslangan [21].

Kognitiv jihatdan özbek tilida nom hayvonning *xatti-harakatiga* (berkiniş va qaziş) asoslangan, ya’ni ikki belgi birlaştirilgan. Ingliz tilida esa bu sodda söz bölib, nom hayvonning özига emas, uning faoliyati natijasiga (teşikli yer) metaforik öxşatiş orqali berilgan. *Ground squirrel* varianti esa boşqa hayvonga öxşatiş (kategoriyaning prototipi orqali nomlaş) modelini aks ettiradi.

TIPRATIKAN – HEDGEHOG. *Tipratikan* – usti tikanlar bilan qoplangan kiçik sutemizuvçi hayvon. Bu söz asli “köp tikan” ma’nosini anglatgan *kirpi* oti bilan *tikan* otidan tarkib topgan juft söz bölib, keyinçalik bir sözga yaxlitlangan[15;338]: *kirpi-tikan* > *kirpitikan* > *tipratikan*.

Hedgehog – dumaloq tanasi ötkir tikanlar bilan qoplangan kiçik yovvoyi hayvon [19] Söz *hedge* (“butazor tösiq, çakalakzor”) va *hog* (“çöçqa”) sözlaridan tarkib topgan; XV asrdan qayd etiladi. Hayvon uylar atrofidagi buta tösiqlarda yaşagani va tumşuği çöçqanikiga öxşagani uçun şunday nomlangan.

Har ikki tilda bu söz ot + ot tarkibli, ikki komponentli qöşma sözdir. Ammo konseptualizatsiya turliça: özbek tili hayvonning eng közga taşlanadigan belgisi – tikanlarini ikki marta ta’kidlaydi (metonimiya: QISM → BUTUN). Ingliz tili esa yaşaş joyi (*hedge*, metonimiya: MAKON → MAVJUDOT) va taşqi öxşaşlik (*hog*, metafora) belgilarini tanlagan.

Özbek tilida çöçqaga qiyoslaş yöqligi özbek xalqi madaniyatida bu hayvonning xonakilaştirilmagani va diniy-madaniy qaraşlar bilan izohlanişi mumkin.

BILAGUZUK – BRACELET, ARMLET. *Bilaguzuk* – bilakka taqiladigan ziynat buyumi. Bu qöşma ot eski özbek tilida *bilak uzugi* birikmasining bir sözga birlaşişidan hosil bölgan: yaxlit talaffuz natijasida *k* undoşi *g* ga almaşgan, söz oxiridagi -i egalik qöşimçasi tuşib qolgan, söng oxirgi *g* yana *k* ga qaytgan [16;144]:

bilak uzugi > *bilaguzug* > *bilaguzuk*

Mahmud Koşğariy bu sözni *bilazuk* şaklida keltirgan bölib, unda öşa davr sözlaşuv nutqidagi tovuş tuşişi aks etgan[12;49].

Ingliz tilida bu ma’noni bir neça söz ifodalaydi:

- **armlet** – yelka va tirsak orasiga (qölning yuqori qismiga) taqiladigan metall tasma yoki halqa; *arm* (“qöl”) + *-let* kiçraytiruvçi qöşimçasi. *-let* qöşimçasi örta asr ingliz tiliga qadimgi fransuz tilidagi *-el* + *-ette* elementlaridan kirib kelgan [22].
- **bracelet** – bilakka taqiladigan zargarlik buyumi [22]. Söz lotinça *brachium* (yunonça *brakhion*, “qöl”) asosidagi qadimgi fransuzça *bracel* orqali kirib kelgan. Tarixan kamonçilarning qölini himoyalovçi bilakband ham şunday atalgan.
- **wristlet, bangle** – sinonimlar.

Bilaguzuklar uzoq tarixga ega bölib, dastlab himoya (tumor) vazifasini bajargan, keyinçalik muhim voqeani xotirlaş va bezak vositasiga aylangan. Özbek tilida söz avval birikma bölib, söng ot + ot tarkibli qöşma otga aylangan; ingliz tilida esa özak + qöşimçadan iborat yasama söz. Har ikki tilda nom tana a’zosi – *bilak* bilan boğlangan (metonimiya: JOY → BUYUM), bu jihat muştarak. Farqi: özbek tili buyumning *şaklini* (yumaloq, halqa – *uzuk*ka öxşatiş) ta’kidlasa, ingliz tili uning *ölçamini* (*-let*, “kiçik”) ta’kidlaydi. Ingliz tilida taqiliş joyiga köra sinonimlar köpligi (*armlet, bracelet, wristlet*) ham predmetlarni mayda kategoriyalarga ajratiş tamoyilini tasdiqlaydi.

Qarindoşlik nomlari tizimi: QAYIN- va -IN-LAW

Qöşma sözlarning tizim hosil qilişi qarindoşlik nomlarida ayniqsa yaqqol körinadi. Ingliz tilida nikoh orqali orttirilgan qarindoşlar *-in-law* birikmasi yordamida ifodalanadi: bu element juftlikning qonuniy (huquqiy) asosda tuzilganini körsatadi.

Özbek tilida ham şunday tizim mavjud, unda *qayin* sözi iştirok etadi. “Özbek tilining izohli luğati”ga köra, *qayin* “ota”, “ona”, “egaçi”, “singil” sözlari oldidan kelib, ular bildirgan qarindoşlarning er yoki xotinga munosabatini ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda *qayın* sözi “xotinning tuğişganlari (erga nisbatan), erning tuğişganlari (xotinga nisbatan)” ma’nosini bergan [15; 510]:

Özbekça	**Etimologik tarkibi**	**Ma’nosi**	**Inglizça muqobili**
qaynata	qayın + ata (“erkak kişi öz bolasiga nisbatan”)	er yoki xotinning otasi	father-in-law
qaynana	qayın + ana: *qayın ana* > *qayınana* > *qaynana*	er yoki xotinning onasi	mother-in-law
qaynağa	qayın + ağa (“oldin tuğilgan öğil”)	er yoki xotinning akasi	brother-in-law
qayni (qaynini)	qayın + ini (“keyin tuğilgan öğil”)	er yoki xotinning ukasi	brother-in-law
qaysingil	qayın + sinil (“keyin tuğilgan qiz”)	er yoki xotinning singlisi	sister-in-law
Kelin	— (sodda söz)	öğilning xotini	daughter-in-law

Jadvaldan ikki muhim kognitiv farq körinadi. Birinçidan, özbek tilida qarindoşlar *yoşiga* köra farqlanadi (*qaynağa – qayni*), ingliz tilida esa ikkalasi ham bitta *brother-in-law* bilan ifodalanadi. Ingliz tilidagi *brother-in-law* özbek tiliga kontekstga qarab *qaynağa, qayni, poççа, kuyov, böja* kabi bir neça söz bilan ögiriladi. Bu özbek madaniyatida yoşga hurmat va oilaviy iyerarxiyaning ahamiyatini körsatadi.

Ikkinçidan, motivlovçi belgilar turliça: ingliz tilida qarindoşlik HUQUQ (*law*) konsepti orqali, özbek tilida esa QARINDOŞLIK RIŞTASI (*qayin* – “tuğişgan”) va TUĞILIŞ TARTIBI konseptlari orqali anglanadi. Yevropa madaniyatida nikohning qonun bilan rasmiylaştirilişi muhim bölgani uçun nom *law* sözi asosida yasalgan, deyiş mumkin. Özbek madaniyatida esa qavm-qarindoşçilikka alohida e’tibor berilgani sababli, har bir oila a’zosiga nisbatan alohida nom mavjud. Grammatik jihatdan ingliz tilida qöşma söz predlogli birikma (*in*) orqali, özbek tilida esa ikki özakning qöşilişi orqali yasaladi.

Xulosa

Özbek va ingliz tillarida kompozitsiya usulida yasalgan sözlar umumiy xususiyatlarga ham, öziga xos farqlarga ham ega. Tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Tabiat hodisalari va barça xalqlar uçun umumiy bölgan voqelikni nomlaşda universallik ustun turadi (*kunçiqar – sunrise, kunbotar – sunset*): komponentlar turliça bölsa-da, ular bir xil obraz-sxemaga asoslanadi.

2. Bir tuşunça ikki tilda qöşma söz bilan ifodalanganda ham turli motivlovçi belgilar tanlanadi: ingliz tili köproq taşqi öxşaşlik va yaşaş joyini (*sunflower, hedgehog*), özbek tili esa köproq harakat va eng közga taşlanadigan belgini (*kungaboqar, yumronqoziq, tipratikan*) asos qiladi.

3. Nomlaşning asosiy kognitiv mexanizmlari – metafora (öxşatiş) va metonimiya (qism, joy yoki harakat orqali butunni nomlaş) – har ikki tilda faol, ammo ularning tanlanişi madaniy tajribaga boğliq (masalan, *hedgehog*dagi *hog* komponentining özbek tilida yöqligi).

4. Ingliz tilida predmetlar vazifasi va ölçamiga köra mayda kategoriyalarga ajratiladi (*umbrella – sunshade, armlet – bracelet – wristlet*), özbek tilida esa umumiy funksiya asosida birlaştiriladi (*soyabon, bilaguzuk*).

5. Qarindoşlik nomlari tizimida ingliz tili HUQUQ konseptini (*-in-law*), özbek tili esa QARINDOŞLIK RIŞTASI va YOŞ IYERARXIYASI konseptlarini (*qayin- qaynağa – qayni*) asos qiladi.

Umuman olganda, qöşma sözlar tahlili milliy ong va xalq tafakkuri söz yasalişida ham namoyon bölişini körsatadi. Qöşma söz nomlanayotgan obyekt haqidagi bilimning siqilgan şakli sifatida millatning olamni idrok etiş va kategoriyalaş tarzini özida saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bauer L. English Word-Formation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 311 p.
2. Benczes R. Creative Compounding in English. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2006. – 206 p.
3. Johnson M. The Body in the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 233 p.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
5. Safarov Ş. Kognitiv tilşunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.
6. Wiśniewski K. Word Formation // Tłumaczenia Angielski. – 2007.– 243 p.
7. Özbek tilining izohli luğati. 5 jildlik. – Toşkent, 2020.
8. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.
9. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: Семантика производного слова. – М.: Наука, 1981. – 200 с.
10. Кубрякова Е.С. Язык и знание. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
11. Madaliyev B. Hozirgi zamon özbek tilida qöşma sözlar // Qöqon davlat pedagogika instituti ilmiy işlar töplami. – Farğona, 1958. – B. 6–7.
12. Mahmud Qoşğariy. Devonu luğotit turk. I tom. – Toşkent: Fan, 1960. – 499 b.
13. Мешков О.Д. Словообразование современного английского языка. – М.: Наука, 1976. – 248 с.
14. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – 314 с.
15. Rahmatullayev Ş. Özbek tilining etimologik luğati (turkiy sözlar). – Toşkent: Universitet, 2000. – 600 b.
16. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б». – М.: Наука, 1978. – 349 с.
17. Hojiyev A. Özbek tilida söz yasalişi. – Toşkent: Öqituvçi, 1989. – 111 b.
18. Hojiyev A. Özbek tilida qöşma, juft va takroriy sözlar. –Toşkent, 1963.– 122 b.
19. Cambridge Dictionary. – https://dictionary.cambridge.org
20. Collins English Dictionary. – https://www.collinsdictionary.com
21. Online Etymology Dictionary. – https://www.etymonline.com
22. Oxford Learner’s Dictionaries. – https://www.oxfordlearnersdictionaries.com